



## ROLE OF POLITICAL PARTIES IN ELECTION CAMPAIGNS

**Otabek A. Yuldashev,**

*PhD, Senior Lecturer*

*University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan,  
Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [aspirant220506@mail.ru](mailto:aspirant220506@mail.ru)*

---

### ABOUT ARTICLE

---

**Key words:** political parties, parliament, municipality, independent candidate, election campaign, election program.

**Received:** 29.07.24

**Accepted:** 31.07.24

**Published:** 02.08.24

**Abstract:** Political parties represent one of the main institutions of modern society, without which it is impossible to imagine the functioning of representative democracy. Parties are mediators between civil society and the state, and are part of the mechanism of self-management of society. Parties not only represent the interests of certain layers of society, but also participate in the formation of these interests. They go to the polls with their political programs and give the population the opportunity to choose between different options for future development, and the winning party implements the program approved by the voters.

---

## SIYOSIY PARTIYALARNING SAYLOV KAMPANIYALARIDAGI ROLI

**Otabek A. Yuldashev**

*PhD, katta o'qituvchi*

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [aspirant220506@mail.ru](mailto:aspirant220506@mail.ru)*

---

### MAQOLA HAQIDA

---

**Kalit so'zlar:** siyosiy partiyalar, parlament, munisipalitet, mustaqil nomzod, saylov kampaniyasi, saylov dasturi.

**Annotatsiya:** Siyosiy partiyalar zamonaviy jamiyatning asosiy institutlaridan birini ifodalaydi, ularsiz vakillik demokratiyasining ishlashini tasavvur qilib bo'lmaydi. Partiyalar fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasida vositachi bo'lib, jamiyatning o'zini o'zi boshqarish mexanizmining bir qismidir. Partiyalar nafaqat jamiyatning ayrim qatlamlari manfaatlarini ifodalaydi, balki bu manfaatlarini shakllantirishda ham ishtirok etadi. Ular o'z siyosiy dasturlari bilan saylovga borib, aholiga kelajakdagi rivojlanishning turli

variantlari orasidan tanlash imkoniyatini beradilar, g'olib partiya saylovchilar tomonidan ma'qullangan dasturni amalga oshiradi.

## РОЛЬ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ В ИЗБИРАТЕЛЬНЫХ КАМПАНИИ

**Отабек А. Юлдашев**

*PhD, старший преподаватель*

*Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [aspirant220506@mail.ru](mailto:aspirant220506@mail.ru)*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** политические партии, парламент, муниципалитет, независимый кандидат, избирательная кампания, предвыборная программа.

**Аннотация:** Политические партии представляют собой один из основных институтов современного общества, без которого невозможно представить функционирование представительной демократии. Партии являются посредниками между гражданским обществом и государством и являются частью механизма самоуправления общества. Партии не только представляют интересы определенных слоев общества, но и участвуют в формировании этих интересов. Они приходят на выборы со своими политическими программами и дают населению возможность выбора между различными вариантами дальнейшего развития, а партия-победитель реализует программу, одобренную избирателями.

### KIRISH

BMT Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi"ning 21-moddasida "Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali o'z mamlakati boshqaruv ishida qatnashish huquqiga egadir. Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi kerak; bu iroda yashirin ovoz berish yoki ovoz berish erkinligini ta'minlovchi boshqa shunga teng ahamiyatga ega bo'lgan umumiy va teng saylov huquqi asosida ifodalanishi lozim". BMTning saylovlarga oid bu prinsiplari hozirgi davrda ko'pchilik davlatlar siyosiy hayotida o'z ifodasini topdi. Jahonda fuqarolarning saylash va saylanishiga oid huquqni ta'minlash kafolatlarini yanada rivojlantirish, siyosiy partiyalarning saylovlarda ishtirok etish huquqlarini kengaytirish va davlat hokimiyati organlari shakllanishining o'ziga xos yo'nalishlarini aniqlash va mazkur sohani takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda siyosiy partiyalar munisipal (kommunal) organlardagi saylov oldi va saylov kampaniyalarida faqat dasturiy maqsadlarni amalga oshirish bilan cheklanib qolmasdan aholi yashash

joylaridagi har bir muammolar, siyosiy kayfiyat, saylovchilarni qiziqtirayotgan masalalarga ham muhim e'tibor berib kelmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat hokimiyati organlarini modernizatsiyalash jarayonida saylovlarni demokratik qadriyat sifatidagi rolini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. "Saylov komissiyalari va aholining saylov madaniyatini yuksaltirish, siyosiy partiyalarning o'z elektorati bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish, partiyalarning siyosiy faolligini oshirish oldimizda turgan muhim masalalardan biridir". Shu jihatdan, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatga xos bo'lgan saylov tizimini shakllantirish sharoitida saylov kampaniyalarida siyosiy texnologiyalardan keng va samarali foydalanish, uning zamonaviy usullarini O'zbekistondagi saylovlar jarayonlarida qo'llash davlat hokimiyati institutlarini modernizatsiyalashning muhim omillaridan biridir.

### ASOSIY QISM

Siyosiy partiyalarning saylov kampaniyalaridagi rolga bag'ishlangan tadqiqotlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar, faktologiya, tizimli tahlil, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning nutqlari, xalqaro miqyosdagi huquqiy hujjatlar va ommaviy axborot vositalarida chop etilgan davriy nashrlardagi materiallar tashkil etadi.

G'arbiy Yevropadagi parlamentar monarxiya va respublikalarda ham davlatlar demokratik qadriyatlar asosida faoliyat ko'rsatib, xalq birdan bir hokimiyat manbai va tashuvchisi sifatida tan olinadi. Bu mamlakatlardagi hokimiyat bo'linishida parlament qonun chiqaruvchi hokimiyat va oliy vakillik organi sifatida ustuvorlikka egadir. Bu mamlakatlarda idora etishning parlamentar shakliga ham monarxiya, ham respublika davlatlari kiradi. Yevropa Ittifoqiga 2015 yil holatiga binoan a'zo bo'lgan mamlakatlarning 21 tasi respublika, 7 tasi esa monarxiyadir. Bu mamlakatlardagi monarx yoki prezidentlar "podsholik qiladi, lekin boshqarmaydi" naqliga amal qiladi. Ulardagi davlat boshliqlari shaklan qanchalik katta vakolatlarga ega bo'lmasin, davlat ishlariga rahbarlik qilish va boshqarishda amalda juda ham kam ishtirok etadilar. Ular, guyoki, hokimiyatlar bo'linishi prinsipini o'rnatuvchi sxemalardan tashqarida turgandek ko'rinadi. Ko'pincha ularning vakolatlarini ular uchun ham mas'ul bo'lgan hukumatlar amalga oshiradilar. Lekin prezident va monarxlarning davlatning oliy vakili, milliy birlik va davlat merosiyligi timsoli sifatidagi o'rni yuqoridir.

Demokratik davlatlarda parlament muttasil harakatda bo'lib, u yozgi ta'til va bayram kunlaridan boshqa vaqtlarda doimiy faoliyatda bo'ladi. Ko'pchilik parlamentlar ikki palatalik bo'lib, Daniya, Shvesiya, Portugaliya parlamentlari kabilar bir palatalikdir. Quyi palatalar odatda umumxalq va umummilliy vakillik organlari hisoblanadi. Yuqori palatalar federativ davlatlarda federatsiya sub'yektlari sifatida faoliyat ko'rsatadilar. Ba'zilarida esa yuqori palata o'tmishdagi tabaqaviy bo'linishning timsoli sifatida saqlanadi. Buyuk Britaniyadagi lordlar palatasi bunga misol bo'la oladi. Unda dunyoviy va ruhoniylar perlar o'zlarining tegishli aristokratik merosiy titullari asosida faoliyat olib boradi.

Bu mamlakatlarda parlamentlar palatalarining shakllanishi ham turlicha kechadi. Lekin quyi palata doimo umumiy va to'g'ridan-to'g'ri saylanadigan deputatlardan iborat bo'ladi. Saylovlar tenglik va yashirin ovoz berish prinsipi asosida o'tkaziladi. Ko'pchilik saylovlar majoritar tizimga asoslanadi: saylov okrugida o'z raqobatdoshlariga nisbatan ko'p ovoz olgan nomzodlar deputat bo'lib saylangan hisoblanadi. Bu tizim Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada kabi ikki partiyaviylik tizimdagi mamlakatlarda siyosiy barqarorlikni saqlash garovi bo'lib xizmat qilmoqda.

Proporsional saylov tizimiga asoslangan mamlakatlarda saylovchilar to'g'ridan to'g'ri nomzodlarga emas, balki partiyaviy ro'yxatlardagi nomzodlarga ovoz berilishi sababli ham kichik partiyalar hisobiga ko'ppartiyaviylik tizimi amal qiladi. Lekin bu saylov tizimiga amal qilgan davlatlarda hukumat krizisi ko'proq uchrab turadi (Italiya, Niderlandiya, Belgiya kabilar).

Germaniyada esa ham majoritar, ham proporsional saylov tizimiga amal qilinadi. Bunda bir qism deputatlar proporsional tizim asosida saylanib, federatsiya sub'yektlari, ya'ni "Yerlar" hududi saylov okruglari vazifasini bajaradi. Deputatlik mandatlarini taqsimlashda partiya yoki partiyalar bloki saylovchilarning kamida 5% ovozini olishlari lozim bo'ladi. Qolgan deputatlar esa bir mandatli okruglar bo'yicha majoritar tizim asosida saylanadi.

Yevropadagi parlamentlarning quyi palatalari deputati bo'lib saylanishi uchun nomzod 25 yoshga to'lgan bo'lishi lozim. Yuqori palatalarga saylanish uchun yosh syenzlari bundan ham yuqoridir. Ko'pchilik mamlakatlarda ko'proq saylovlar bilan bog'liq davlat mansabdorlari, polisiya xizmatchilari, harbiylar, cherkov xizmatchi va xodimlari, sud va prokuratura tizimida ishlovchilar deputat bo'lib saylanishlari ta'qiqlangan. Umumiy qonunga binoan deputat o'z vazifasini faqat ijodiy yoki darslar berish faoliyati bilan qo'shib olib borishi mumkin. Lekin prezidentlik va aralash respublikalardagi qoidalardan farq qilib, parlamentar idora shaklidagi davlatlarda deputatlik mandatini vazirlik lavozimi bilan qo'shib olib borish ta'qiqlanmagan.

Parlamentar davlatlarda deputatlar shaklan saylovchilarning talablar berishi bilan bog'lanmasdan, ular millatning vakillari hisoblanadi. Lekin hayotda har bir deputat o'zining saylovchilari bilan mustahkam aloqada bo'ladi. Chunki qayta saylanish garovi saylovchilar izmidadir.

Har bir palatada siyosiy partiyalar a'zolari bo'lgan parlament a'zolarining fraksiyalari faoliyat ko'rsatadilar. Ularning maqomlari palataning ichki qoidalari bilan muvofiqlashtiriladi. Ba'zi mamlakatlar parlamentlarida muxolifatdagi partiyalar vakillari palata yoki uning qo'mita va komissiyalariga boshchilik qilishi mumkin. Fraksiyalar moddiy vositalar, binolar va boshqa texnik xizmatlar bilan ta'minlanadi.

Parlamentar idora etish shaklidagi mamlakatlar parlamentlari faoliyatida partiyalarning o'rni beqiyosdir. Siyosiy partiyalarning saylovlardagi ishtirokidan tashqari palatalar faolligining o'zi ham ular tomonidan ta'minlanadi. Parlamentlar faoliyati asosini partiyaviy manfaatlar, bundan tashqari ular ortida turgan manfaatdor guruhlar irodalari tashkil etadi. Agar partiya idora etuvchi partiya darajasiga ko'tarilsa,

u holda davlat siyosatining asosini partiyaviy dasturiy maqsadlar tashkil etadi. Lekin bu mamlakatlardagi partiyalarning o'zlari ham xalq va ijtimoiy tabaqalar kayfiyati, manfaatlari, jamoatchilik fikri doirasidan tashqarida yashay olmaydi. Parlamentdagi rahbar lavozimlar ham avval partiya yoki partiyaviy fraksiyalar yig'inlarida hal bo'lishi ana'anaga aylangan. Shu bilan birga parlamentda yoki palatada biron bir partiyaning total ustunlik qilishiga qarama-qarshi mexanizmlar ham ishlab chiqilgan. Doimo ozchilikning fikri va ovozini eshitish uchun yetarlicha shart-sharoitlar mavjud.

O'zini o'zi boshqarish organlari bir necha asrlar ilgari davlatning quyi mahalliy boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi siyosiy tashkilot sifatida shakllangan bo'lsa, ular XX asrga kelib fuqarolik jamiyati institutiga aylanishgacha bo'lgan katta tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. G'arb siyosatshunoslarining fikricha, "o'zini o'zi boshqarish" tushunchasi davlatga nisbatan fuqarolar jamoalari mustaqilligining shakllanishi bilan bog'liqdir. Fransiyalik mutafakkir Aleksis de Tokvilning talqinicha, mahalliy o'zini o'zi boshqarish shunday bir siyosiy institutki, u nafaqat siyosatchilar uchun, balki, umuman, barcha fuqarolar uchun bir maktabdir. Bu institutga xos bo'lgan imkoniyatlar shu qadar yuksakki, u fuqarolarning keng siyosiy ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. O'zini o'zi boshqarish organlari siyosiy madaniyat unsurlarini shakllantirishning ham beqiyos omilidir. Oxir oqibatda bu organlar faoliyati siyosiy tizimning bir butun barqarorligi va moslashuvchanligini ta'minlab beradi. Aleksis de Tokvil yozganidek, "millat jamoaviy institutlarsiz ham erkin hukumat shakllantirishi mumkin, lekin u erkinlikning haqiqiy ruhiyatiga ega bo'la olmaydi".

Mahalliy o'zini o'zi yoki munisipal – ("municipal" (ing.) – "o'zini o'zi boshqarish") boshqarish deb, u yoki bu ma'muriy - hududiy birliklardagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning ma'muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarishga aytiladi.

Munisipal boshqaruv - bu davlat boshqaruvining nisbatan nomarkazlashgan shaklidir. Shu bilan bir vaqtning o'zida u fuqarolik jamiyati institutidir. Bunday boshqaruv organlarining asosiy belgilari, bu - ularning saylanish va o'z hududidagi aholi manfaatlari asosida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarga rahbarlik qilishdagi nisbatan mustaqilligidir.

Shu bilan birga, u o'z hududi aholisi manfaatlarini ifodalaydigan organ bo'lgani uchun ham jamiyat instituti sifatida o'zini o'zi boshqarish funksiyalarini bajaradi. Munisipal boshqaruvning nazariy asoslari dastlab G'arbiy Yevropadagi inqiloblar mafkurachilari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning tabiati va o'zni mahalliy hokimiyatlar va jamoalar o'zini o'zi boshqarish organlarining saylanishdagi g'oyalari bilan bog'liqdir. Mahalliy hokimiyatning saylanish tamoyili vakillik boshqaruvi g'oyalarga mutanosib bo'lib, ular feodal absolyutizmga qarshi harakat shakli sifatida tug'ildi. Saylangan munisipal organlar mustaqilligi konsepsiyasi, ularning qishloq jamoalari va shaharlardagi ishlarga rahbarlik qilishida markazdan mustaqilligi yangi tarixni boshlanishida mahalliy o'zini o'zi boshqarish

funksiyalarini ifodalab, bu organlar davlat manfaatlarini sohasidan tashqaridagi bo'g'in, ya'ni jamiyat instituti sifatida ham talqin qilina boshlandi.

Munisipal boshqaruv organlari o'zlarining saylanish va mahalliy aholining vakillari sifatidagi rasmiy o'rinlariga binoan vakillik tizimining tarkibiy qismlaridan biridir. Ularning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi faoliyatlari aholi uchun ulkan ahamiyatga egadir. Munisipal organlarda davlat apparatining boshqa bo'g'inlariga nisbatan byurokratizmga berilish kamroq bo'ladi. Ana shu barcha fazilatlar saylanuvchi mahalliy boshqaruvni demokratiya qadriyatlaridan biriga aylantirdi. Shuningdek, munisipal boshqaruv bir tomondan, mahalliy hududlarda davlat boshqaruvining ba'zi vakolatlarini amalga oshirsa, ikkinchi tomondan, fuqarolik jamiyati instituti sifatida aholi manfaatlarini o'zida ifodalaydi va ularni himoya qiladi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab AQSH va Yevropada munisipal boshqaruv tushunchasi mazmunan o'zgarib bordi. Chunki bu davrda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bu sohani chuqur isloh etishga kirishildi. Ko'p o'tmasdan butun G'arbiy Yevropa bo'ylab nomarkazlashtirish islohotlari boshlandi. Ana shunday o'zgarishlardan biri - 1974 yilda Buyuk Britaniyada ro'y berdi. Yangi o'zgarishlar konsepsiyasiga binoan kommuna/cherkov qavmlari yashaydigan hududlar darajasidagi boshqaruv qishloq joylarda o'z faoliyatlarini davom ettirishi mo'ljallandi. Mahalliy boshqaruvning eng yirik birliklari sifatida Angliyadagi Mamlakat Kengashi (Metropolitan) va Shotlandiyadagi Mintaqaviy Kengashlar huquqiy maqomlari yangidan isloh etildi. Ular o'z navbatida geografik kengliklar hududlaridagi tuman kengashlari bilan qoplandi. Mamlakat yoki Shotlandiyaning har bir mintaqasi ana shu tuman kengashlari tarkibidan iborat bo'lishi joriy etildi. Munisipal boshqaruv xizmati barcha tegishli darajalarda qulaylashtirildi va soddalashtirildi.

Rivojlangan ilg'or mamlakatlarda munisipal organlarni shakllantirish usullari ham rivojlanib bordi. 1985 yil 15 oktyabrda Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan. "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risidagi Yevropa xartiyasi"ning 3-moddasida bu tushuncha quyidagicha ifodalanadi: "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish, deganda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z mas'ulligida, mahalliy aholi manfaatlarini asosida, qonunlar doirasida davlat ishlarining aksariyat qismini boshqarish va uni real uddalay olish qobiliyatiga aytiladi. Bu huquqlar erkin, yashirin, teng, to'g'ridan-to'g'ri umumiy saylovlarda saylangan a'zoldan iborat kengashlar yoki majlislar tomonidan amalga oshiriladi. Kengashlar yoki majlislar o'zlariga hisobotlar berib boruvchi yoki ijroiya organlariga ega bo'lishi mumkin. Bu qoidalar fuqarolar majlislariga, referendumlarga yoki fuqarolar to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishining qonun yo'l qo'ygan boshqa shakllariga murojaat etishni istisno etmaydi".

Hozirgi kunda Yevropa, AQSH, Yaponiya kabi mamlakatlarda mahalliy boshqarish organlari saylanuvchi munisipal kengash (yoki yig'ilish) va ijroiya apparatidan iborat. Munisipal kengashlarga saylovlar tartibi alohida saylash qonunlari vositasida amalga oshiriladi. Federatsiya asosidagi davlatlarda qonun chiqarish federatsiya sub'yektlarining qonun chiqaruvchi organlari vakolati doirasiga kiradi. O'rta

asrlardan boshlab demokratik an'analar unsurlari shakllangan mamlakatlarda munisipal kengashlarga saylovlar jarayonlariga umumiy saylash huquqi prinsiplari joriy etilgan. 21-25 yoshga yetgan shaxslar passiv saylov huquqidan foydalanadilar.

Deputatlikka nomzodlarni ko'rsatish saylov okruglarini tashkil etish va ovoz berish natijalarini aniqlash tartibi bir davlat doirasida yoki boshqa davlatlarda bir-biridan xilma-xilligi bilan ajralib turadi. AQSHda partiyalardan nomzodlarni ajratib olishning oddiy usuli, bu mahalliy quyi saylovlar (praymeriz)ni o'tkazishdir. Munisipal kengashlarga saylov o'tkazishda uch xil saylov okruglari mavjud: bir mandatli, ko'p mandatli va nihoyat munisipalitet hududida bir va ko'p mandatli saylov okrugini tashkil etishi mumkin. Saylov okruglarining eng ko'p tarqalgan shakli, bu ko'p mandatli saylov okruglaridir. Masalan, Buyuk Britaniyada graflar kengashlarining a'zolari bir mandatli saylov okruglaridan saylanadilar, okruglarda esa-bir mandatli yoki ko'p mandatli saylov okruglari mavjud. Munisipal kengashga saylovlarda nomzodlar siyosiy partiyalar va boshqa tashkilotlar vakili yoki mustaqil nomzodlar sifatida ishtirok etadilar.

AQSHda, shuningdek, yana ba'zi mamlakatlarda saylovlar ko'pincha munisipalitetlarda partiyasizlik asosida o'tkaziladi: ko'pincha nomzodlar saylanish uchun "mustaqil" nomzod sifatida ishtirok etadilar va munisipal kengashlaridagi partiya fraksiyalari esa rasman qatnashmaydi. Saylovlarni oxirgi natijasini aniqlashda mojaritar va proporsional tizimlarni xilma-xil usullaridan foydalanadilar. Ko'p hollarda saylovning mojaritar tizimi qo'llanadi.

Saylovlarda partiyasiz va "mustaqil" nomzodlar ko'rsatish tajribasi 2014 yildan boshlab O'zbekiston saylov tajribasida qo'llanilmay kelinmoqda. Bu, albatta, vaqtinchalik chora bo'lib, o'zini o'zi boshqarish organlarining mahalliy vakillik organlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish o'zini oqlamanganligi bilan bog'liqdir. Birinchidan, nomzod ko'rsatish uchun fuqarolar umumiy yalpi majlisi o'tkazish qonunchilikda belgilanmagan. Boshqacha aytganda, nomzod ko'rsatish uchun mahalla hududidagi barcha fuqarolar ishtirokidagi majlis o'tkazilmaydi, majlis asosan ko'chalar vakillari ishtirokida o'tkaziladi. Deputatlikka nomzodlar ko'rsatishda fuqarolar yig'inlari siyosiy partiyalar bilan adolat prinsiplari asosida raqobatlashish shart-sharoitlari hali yaratilmagan.

Shuningdek, g'arb mamlakatlarida mustaqil nomzodlar uchun mulkiy syenzlar va oldindan garov mablag'lari berish kabi vositalar o'tish davridagi davlatlar saylov jarayonlarida bir qancha qiyinchiliklar keltirib chiqarishi tajribalarda aniqlandi. Qolaversa, O'zbekistonda "musmtaqml nomzodlar" va o'zini o'zi boshqarish organlaridan ko'rsatiladigan nomzodlar parlament tomonidan chegarab qo'yildi. Bizningcha, bu sohada mamlakatimizda g'arb tajribasini qo'llash lozim deb hisoblaymiz.

Fransiyadagi kommunalarda aholining soniga qarab munisipal kengashlar a'zolarini saylashning ikki turi qo'llaniladi. Kommunalarda aholisi 3500 dan kam bo'lgan hududlarda saylovlar mojaritar sistemasi bo'yicha ikki davrda o'tadi. 3500 va undan aholisi ko'p bo'lgan kommunalarda mojaritar va proporsional sistemalar birga qo'shib o'tkaziladi. Mintaqaviy kengashlar bir turdagi ro'yxat bo'yicha

vakillar mutanosibligi tizimi bo'yicha saylov huquqining umumiy va to'g'ridan-to'g'ri saylash prinsipi asosida ro'yxat bo'yicha saylanadilar. Mintaqaning barcha departamenti (ma'muriy hududiy okrugi) mustaqil saylov okrugi sifatida turli partiyalardan nomzodlar ro'yxati asosida saylov o'tkazadi.

Shuni aytish kerakki, munisipal kengashlarining saylanish prinsiplaridan, ayniqsa, mintaqaviy organlar shakllanish munosabatlarida ko'p narsalar istisno qilinadi. Masalan, AQSHda ko'pincha graflik kengashlari quyi darajadagi munisipal xokimiyat vakillaridan tuziladi.

Munisipal kengashlar turli muhlatlarga saylanadilar. Masalan, AQSHda munisipal kengashlar vakolati davri 2, 3 yoki 4 yil, Buyuk Britaniyada 4 yil. Shu bilan birga kengashning turiga qarab har yili maslahatchilarnig 1/3 qismi qayta saylanadi yoki 4 yilda bir marta butun munisipalitet tarkibi qaytadan saylanadi. London munisipaliteti 3 yil muddatga saylanadi. Fransiyada kommuna kengashlari va bosh departamentlar kengashi 6 yilga saylanadi. Shu bilan birga har 3 yilda Bosh kengash tarkibining yarmi qaytadan saylanadi. Italiyada munisipal kengashlarining vakolat muddati 5 yil, GFRda 4 yoki 5 yil, Yaponiyada esa munisipal yig'ilishining vakolat muddati 4 yildir.

Yuqorida sanab o'tilgan mamlakatlarning munisipal boshqaruvining muhim tomoni shundaki, ularning kengashlari a'zolari uncha ko'pchilikni tashkil etmaydi. Masalan, Amerikada kengashlarga saylanganlar soni 5-22 tagacha (katta shaharlarda 5-9 gacha), ayrim hollarda 50 kishigacha bo'ladi; Fransiya kommunalarida esa 9 tadan 69 tagacha (Parijda - 163, Marselda - 101, Lionda - 73); Italiyada - 15-80 tagacha; GFRda - 5 tadan 80 tagacha; Buyuk Britaniyada - 70 tadan 75 tagacha, Yaponiyada - 12 tadan 100 tagacha, Tokioning munisipal kengashi va prefekturasiga esa - 120 tagacha maslahatchilar saylanadilar.

Munisipal kengashlariga saylangan shaxslar o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradilar, ya'ni ish haqi olmaydilar. Lekin Buyuk Britaniya, Yaponiya, AQSHda munisipal maslahatchilarning kengash yig'ilishlariga qatnashganlik uchun aniq mablag' yoki ish haqi sifatida yillik to'lovlar ko'zlangan. Fransiyada munisipal kengash o'z a'zolariga muayyan haqni belgilashi (yoki belgilamasligi) ham mumkin. Biz ko'rib o'tgan mamlakatlarning ko'pida munisipal kengashlar huquqiy jihatdan munisipal apparat boshqarmasining tepasida turadi: ularning vakolatiga quyidagilar kiradi: mahalliy byudjetni qabul qilish, ularning vakolati doirasiga kiruvchi va yuqori tashkilotlar tomonidan hal qilinmagan ayrim masalalar bo'yicha me'yoriy qarorlar qabul qilish, mahalliy soliqlarni joriy etish, qarzlar olish va ularni ishlatish masalalarini yechish, munisipalitetga qarashli mulkni tasarruf etish, ko'pchilik davlatlarda munisipalitetning ijroiya rahbarlik organlarini tashkil etish va ularni nazorat qilish, mahalliy referendumlarni belgilash kabilar kiradi.

Ilg'or xorijiy mamlakatlardagi o'zini o'zi boshqarish tizimi bir necha yuz yilliklarda shakllanib, u XX asrga kelib demokratik xarakter kasb eta boshladi. Rivojlangan mamlakatlardagi o'zini o'zi boshqarish organlarini saylovlar yo'li bilan shakllantirish, ular faoliyatini moliyalashtirish, fuqarolarning



o'zini o'zi boshqarishda siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki, mazkur organlarning aholi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashdagi o'rni yuksak maqomga ko'tarilgan.

Siyosiy partiyalar munisipal (kommunal) organlardagi saylov oldi va saylov kampaniyalarida faqat dasturiy maqsadlarni amalga oshirish bilan cheklanib qolmasdan aholi yashash joylaridagi har bir muammolar, siyosiy kayfiyat, saylovchilarni qiziqtirayotgan masalalarga ham muhim e'tibor berishi lozim. Ayrim yevropalik siyosatshunos olimlarning (Xorst Kanits va Andreas Engel) fikricha, siyosiy partiyalar munisipal vakillik organlariga bo'ladigan saylovlarda, shuningdek, kundalik partiya hayotida quyidagilarni o'z faoliyatining asosi deb bilmog'i lozim bo'ladi:

- erkinlik, tenglik, hamfikrlik qadriyatlarini o'rganish, ularni doimo e'tiborga olib borish;

- aholi o'rtasida partiya mahalliy organining o'z o'rini belgilab olishi, doimiy ravishda o'zini o'zi rivojlantirib borishi, hududda inson qadr-qimmatini, tinchlik, aholining umumiy manfaatlarini uchun kurashuvchi sifatida namoyon bo'lish lozim;

- tamoyillarga amal qilish (masalan, demokratiyani doimo qo'llab-quvvatlab borish, ozchilik fikriga va qarashlariga chidamli bo'lish, ijtimoiy bozor iqtisodiyoti xo'jaligini qo'llab-quvvatlash, xususiy mulkchilikni har tomonlama himoya qilishga muhim ahamiyat berishdir. Shuningdek, siyosiy partiyalarning mahalliy tashkilotlari jamiyatning kelajagi va aholi jamoasining rivojlanish sur'atlari o'ta shiddatli yoki o'ta tartibsiz holga tushmasligi uchun puxta o'ylangan va oldindan rejalashtirilgan bo'lishiga muhim ahamiyat berish lozim. Shuningdek, aholining siyosiy xohishlarini shakllantirish uchun asoslar yaratish lozim. Buning uchun partiya dasturlarini oldindan puxta rejalashtirish talab qilinadi, xattoki, bu sohada uzoq muddatli strategik dasturlar qabul qilish ham foydadan holi emas. Bu dasturda quyidagilarga muhim ahamiyat berish zarur:

- dasturda partiyaning boshqa partiyalardan farqlari aniq va ravshan sezilib turishi lozim;

- partiyaning dasturi uning siyosiy faoliyati uchun asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qilishi, shu bilan birga, dastur elektoratni (yoki uning ma'lum qismini) o'ziga xos o'zaro g'oyaviy bog'lovchi - halqa vazifasini bajarishi lozim;

- dastur doimo va har bir saylov kampaniyasi davrida saylovchining o'zini o'zi anglash jarayonlariga ta'sir etib, partiyaga yangidan-yangi xayrixohlarni jalb etadi, partiya to'g'risida saylovchilar tasavvurini shakllanishiga yordam beradi;

- dastur saylov oldi harakat dasturi uchun asosiy manba vazifasini o'taydi. Shu bilan birga siyosiy partiyalar munisipalitetlar hududlaridagi o'z vazifalarini tizimli ravishda tashkil qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Yevropa mamlakatlaridagi siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonunchilik asoslaridan kelib chiqib, sakkizta asosiy vazifalar belgilanadi:

1. Jamoatchilik fikrini shakllantirishga ta'sir etish, xususan:

- fuqarolar, ularning turli uyushma va ittifoqlari, fuqaroviy tashabbuskorlik guruhlarini, kasaba uyushmalari, cherkovlar va uyushmalar bilan doimiy muloqotlar vositasida ularni mahalliy partiyaviy

guruhlarning siyosiy maqsadlari va mafkuralariga ishonitirish maqsadida doimiy ravishda muloqotlar o'tkazish;

- kommunal-siyosiy dasturlar vositasida va mahalliy axborot vositalarida mahalliy siyosiy partiyalar dasturi, maqsadlari, faollari va g'oyaviy mafkurasiga doir reklamalarni namoyish etish;

- shaxsiy muloqotlar va partiviy tadbirlar vositasida ta'sir ko'rsatish.

2. Siyosiy ta'limni rag'batlantirish, xususan:

- jamoatchilik o'rtasida va boshqa aholi yashash joylarida siyosiy va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlari va tizimlariga doir tadbirlarni amalga oshirish;

- siyosiy va boshqaruv qarorlari qabul qilishda fuqarolarning ishtirok etish imkoniyatlari va ularning bu jarayonlarga bevosita ta'sirlarini aniqlash;

- fuqarolarning jamoatchilik o'rtasidagi o'ta muhim muammolarni yechish uchun aholi o'rtasida muloqotlar uyushtirish, fuqarolar ishtirokidagi turli anjumanlar tashkil etish;

3. Fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga ko'mak berish, ularni qo'llab-quvvatlash, xususan:

- turli tadbirlar o'tkazish, fuqarolar bilan uchrashuvlar uchun maxsus soatlar, fuqarolar tashabbuslari, turli namoyishlar, so'rovnomalar, referendumlar o'tkazish;

- partiya ishiga doir yetarli axborotlarga ega bo'lgan fuqarolarni integratsiya qilish;

- mazkur fuqarolarni munisipal kengash sessiyasining tayyorlov ishlariga jalb qilish.

4. Faol va iste'dodli fuqarolarni siyosiy mansablarni egallashga va bajarishga o'rgatish va tayyorlash, xususan:

- faol, iste'dodli va qobiliyatli fuqarolarni siyosiy mansablarni egallash va bajarishga o'rgatish, ularni siyosiy faoliyatga jalb etish;

- partiya a'zolarini munisipalitet kengashlari masalalari bo'yicha turli tashabbuslar ko'rsatishga tayyorlash maqsadida ularning maxsus guruxlarini tuzish, ular bilan ishlash;

- hududdagi muhim muammolar bo'yicha maxsus ishchi guruhlar tuzish;

- partiya ichida partiya a'zolari o'rtasida vazifa va ishlarni taqsimlash;

- partiya xodimlari va faollarini o'qitish va malakalarini oshirish;

5. Munisipal vakillik organlariga nomzodlarni saylovlarga qo'yish uchun, xususan:

- nomzodlarni saralash bo'yicha nizom va qoidalarni ishlab chiqish;

- nomzodlarni saralashning keng professional va mintaqaviy jihatlarini tahlil etish, undan xulosalar chiqarish;

- shahar, tuman munisipal kengashlari, saylov okrugi majlisi, viloyat va mamlakat parlamenti deputatligi uchun mos keladigan nomzodlarni saralash, partiya organlarida saylash, ularni tayyorlash;

- saylov kampaniyasiga qo'yilgan nomzodlarni qo'llab-quvvatlash va ularning tarafdorlari va partiya mas'ul xodimlarini partiya nomzodlarini rag'batlantirishga safarbar qilish.

6. Mamlakat parlamenti, hukumatga va siyosiy hayotga ta'sir ko'rsatish, xususan:

- shaxar/munisipal munisipal kengashi va ijro boshqaruvi ishlariga fuqarolarning takliflarini kiritish chora-tadbirlarini ko'rish;

- yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'rganish va umumlashtirish vositasida fraksiyalarga ta'sir ko'rsatish va boshqaruv organlari nazoratiga ko'mak berish;

- partiya rahbar organlaridagi partiya fraksiyalarining hisobotlariga doir munozaralar va turli muloqotlar o'tkazish;

- partiya fraksiyalarining partiya dasturidagi kommunal siyosat to'g'risidagi maqsad va vazifalarini bajarilishini, bu sohadagi ularning takliflarini muhokama qilish, ularga turli taklif va tavsiyalar yuborish;

- partiya tashkiloti va fraksiya ishlarini umumiy strategiya va taktika vositasida faoliyat yuritish jarayonlarini o'rganish, uning natija va xulosalarini muhokama qilish.

7. Hududdagi fuqarolarning siyosiy maqsadlarini davlat qarorlariga, siyosiy jarayonlarga kiritish, xususan:

- mahalliy partiya guruhlarining munisipal, shuningdek, bir vaqtning o'zida hududdagi muammolar haqidagi fikrlarini to'plash, umumlashtirish, yuqori partiya organlari, parlament deputatlariga yetkazish (masalan, energiya ta'minoti xususida, o'rmonlarning yo'q bo'lib ketayotganligi, ichimlik suvi bilan ta'minlash va hokazo);

- provinsiya kengashi va parlament deputatlaridan ma'lumotlar hamda axborotlar olish va ular bilan muloqotlar o'tkazish;

- mahalliy kengashlarda fraksiyalar ishiga rahbarlik qilayotgan nomzodlarni saralash, ularni partiya dasturidagi maqsad va vazifalarni bajarishlariga doir yig'ilishlar va boshqa tadbirlar o'tkazish;

- jamoatchilik orasida yoki tuman va shaharlarda mahalliy partiya tashkiloti tomonidan amalga oshirish mo'ljallangan kommunal va siyosiy sohadagi vazifalarni bajarilishini nazorat qilish;

8. Xalq va davlat organlari o'rtasida aloqalarni qo'llab-quvvatlash, xususan:

- munisipalitet organlari va aholi o'rtasida partiyaning vositachilik faoliyatini doimiyligini ta'minlash va munisipal kengash deputatlari bilan partiya tashkiloti a'zolari aloqalarini mustahkamlash;

- fuqarolar bilan doimiy muloqotlarni kuchaytirish, masalan fuqarolarni qabul qilish soatlarini tashkil etish va uylarga tashrif buyurish tajribasini o'rnatish.

Shunga qaramasdan, mahalliy partiya tashkiloti munisipal kengashdagi o'z fraksiyasini partiyaning bir qismi sifatida tasavvur etganida hamda har ikkalasi o'rtasida o'zaro ishonch va adolatli mehnat taqsimoti tamoyiliga asoslangan munosabatlar o'rnatilgandagina muvaffaqiyatli va samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyatining institutlari - nodavlat tashkilotlar va siyosiy partiyalar jamiyatdagi individlar, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar manfaatlarini o'zlarida ifodalaydi. Shuning uchun ham:

- parlament qonunlar loyihalarini ishlab chiqishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali va jonli o'zaro aloqalarni yo'lga qo'ya olgandagina o'zining asosiy funksiyalarini bajara oladi. Muhimi, jamiyat manfaatlari qonunlarda ifodalangandagina bu qonunlar ishlashi mumkin;

- fuqarolik jamiyati institutlari ham davlat organlaridan mustaqil, o'zi tayangan ijtimoiy qatlam va guruhlar ifodachisiga aylangandagina o'zining vakolatlarini bajara olishi mumkin. Aks holda, bu tashkilotlar nomigagina mavjud bo'ladilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Всеобщая декларация прав человека.-Т.:Узбекистан, 2009.-13 с.
2. Мирзиёев Ш.М. 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси //Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари . -Тошкент.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2020. -5 б.
3. Парламент в зарубежных странах: однопалатные и двухпалатные системы, организация палат.// <https://cyberpedia.su/12xe89f.html>.
4. Токвиль А.Де Демократия в Америке. //Антология мировой политической мысли. В 5 т. Т.1.Зарубежная политическая мысль: истоки и эволюция.-М.: Мысль, 1997.- 712-720 с.
5. Qirg'izboev M. va boshqalar. O`zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O`quv qo`llanmasi. Toshkent.: “Navro`z”. 2014. 247 b.
6. Клевин А.Ю., Кугий А.И. Государственное и муниципальное управление и его значение для современного демократического общества// Научный вестник Южного института менеджмента.-2016. №3 (15) -С.85-92
7. Барабашев Г.В. Местное самоуправление. Учеб. пособие по муницип. праву, истории и теории гос. упр / - Москва: Изд-во Моск. ун-та, 1996. - 103
8. Муниципальные системы зарубежных стран. 8 апреля 2015 г.// [https://studopedia.ru/7\\_113724\\_munitsipalnie-sistemi-zarubezhnih-stran.html](https://studopedia.ru/7_113724_munitsipalnie-sistemi-zarubezhnih-stran.html).
9. Европейская хартия местного самоуправления ETS № 122 (Страсбург, 15 октября 1985 г.)//<https://base.garant.ru/2540485/>.
10. Фененко Ю.В. Муниципальные системы зарубежных стран: правовые вопросы социальной безопасности / - М.: МГИМО-Университет, 2004. -С. 45
11. А. И. Савельев. Местное самоуправление как субъект политического пространства. Журнал “Регионология” №2 2009.-С.70-71.
12. Политические партии в условиях демократии. Роль и функции в политической системе Федеративной Республики Германии. Издатели: Йозеф Тезинг и Вильгельм Хофмайстер.-Санкт-Аугустин: Фонд Конрада Аденауэра,1995.-286-287 с.
13. Политические партии современной Европы // <https://studfile.net/preview/8141460/page:9/>